SURXONDARYO VILOYATIDAGI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING QURILISH SOHASIDAGI ULUSHINING TREND MODELLARI ORQALI TAHLILI	1005
Mamatkulova Xurshida Nasrullayevna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASES OF TEXTILE PRODUCTS MARKET SEGMENTATION	1012
Ibaydullaeva Feruza Kholjuraevna	
O'ZBEKISTONNING JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHGA QARSHI KURASH TIZIMIGA SUN'YI INTELLEKTNI INTEGRATSIYASI: BANK SEKTORIDA JORIY ETISHNING POTENSIALI VA TO'SIQLARINI BAHOLASH	1018
Rashidov Avazbek Raximovich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	1025
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ.....	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПочки	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI

Abdullayeva Nafisa Shavkatovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor
va mutaxassislarini qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti rektori,
pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Boymuradov Normurod Abdusodikovich

Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining moliyaviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Tashkilot rahbarining moliyaviy boshqaruv, byudjetni rejalashtirish va hisobdorlik sohasidagi bilim va ko'nikmalarining ta'lim sifati va muassasaning umumiy samaradorligiga ta'siri o'rganilgan. Maqolada, shuningdek, Singapur va Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribalari asosida MTT direktorlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, rahbar kompetensiyasi, moliyaviy boshqaruv, byudjetni rejalashtirish, samaradorlik, shaffoflik, hisobdorlik, xalqaro tajriba.

Abstract. This article is dedicated to the topical issues of developing the financial literacy of directors of preschool educational organizations. It examines the impact of the organization head's knowledge and skills in financial management, budget planning, and accountability on educational quality and the overall efficiency of the institution. The article also provides scientifically-grounded recommendations for increasing the financial independence of PEO directors, ensuring transparency, and accountability based on the best practices of developed countries such as Singapore and Finland.

Key words: financial literacy, preschool educational organization, director's competence, financial management, budget planning, efficiency, transparency, accountability, international experience.

Аннотация. Данная статья посвящена актуальным вопросам развития финансовой грамотности директора дошкольной образовательной организации. Изучено влияние знаний и навыков руководителя в области финансового управления, бюджетного планирования и отчётности на качество образования и общую эффективность учреждения. В статье также приведены научно обоснованные рекомендации по повышению финансовой самостоятельности директоров ДООУ, обеспечению прозрачности и подотчётности на основе передового опыта таких развитых стран, как Сингапур и Финляндия.

Ключевые слова: финансовая грамотность, дошкольная образовательная организация, компетентность руководителя, финансовое управление, бюджетное планирование, эффективность, прозрачность, подотчётность, международный опыт.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim jamiyatning uzluksiz ta'lim tizimida ilk va muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu bosqichda ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish sohada faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning salohiyati, kasbiy tayyorgarligi, yaratilgan mehnat sharoitlari bilan birga direktorlarning moliyaviy savodxonlik darajasiga ham bog'liqdir. Bugungi kunda zamonaviy davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbaridan nafaqat yuksak pedagogik yetakchilik, balki chuqur tashkiliy va moliyaviy bilimlar ham talab etilmoqda. Ta'lim tashkilotining barqarorligi, unga ajratilgan moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish darajasi, pirovardida esa xodimlarning mehnat unumdorligi va motivatsiyasi bevosita direktorning moliyaviy boshqaruv kompetensiyasi darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu sababli mazkur mavzudagi ilmiy izlanishlar mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda XX asrning 80 yillaridan boshlab aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga bag'ishlangan ilmiyamaliy tadqiqotlar faollasha boshladi. Moliyaviy savodxonlik tushunchasiga bildirilgan nazariy qapashlarning mazmuni tuplacha bo'lsada, ularning yagona g'oyasi – bu inson moliyaviy mustaqilligini va fapovonligining asosiy sharti bu uning moliyaviy savodxonligi bilan bog'liqligini ta'kidlashgan. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan tupli stpategiya, konsepsiya, dastur va chopatadbiplapni mukammal ishlab chiqish va uni amaliyotga samapali tatbiq etishda moliyaviy savodxonlikning nazariy asoslari muhim ahamiyatga ega.

Robert Kiyosaki fikriga ko'ra, «Moliyaviy savodxonlik iqtisodiy moliyaviy bilimlarning samarasi bo'lib, dastlab pul topish, jamg'arish, ongli ravishda jamg'armani yuqori samaradorlikka ega investitsiyaga yo'naltirishi, daromadini oshirishi va o'z hayotining yaxshilashi bilan izohlanadi»¹.

Druker P. fikriga ko'ra «Shaxsning iqtisodiy moliyaviy savodxonligi darajasi uning bozordagi tovar va xizmatlar bilan pulga nisbatan munosabatini belgilaydi.

Li.N qarashlarida Moliyaviy savodxonlik bu axborot yoki imkoniyatlardan ko'ra ko'proq bo'lgan ma'noni anglatadi. Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'lim tadbirlari ko'p qirrali bo'lishi va faqatgina rasmiy ta'lim tizimida o'qiydigan bolalar hamda kattalar ta'limi doirasida belgilanishi kerak.

Staxovich L.V fikriga ko'ra, «Moliyaviy savodxonlik – bu insonning maktab, kollej, oliy o'quv yurtlarida egallagan moliyaviy iqtisodiy bilimlari bilan hayotida shakllangan ko'nikmalarini qamrab oladi.

Veber M. «Insonning iqtisodiy xulqi – subyekt tomonidan uning ega bo'lgan resurslar ustidan nazoratining madaniylashgan usuli bo'lib, subyektiv va obyektiv ravishda resurslarning iqtisodiy nafilligi nuqtayi nazaridan resurslar ustidan nazoratni amalga oshiradi»

Vaxabov A.B. fikriga ko'ra, «Moliyaviy savodxonlik – fuqaroning moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar bozorida aktiv pozitsiyasini egallashi, jamiyatda o'zi va oila a'zolarining turmush farovonligini oshirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi.

Shadmanov E. fikriga ko'ra, Moliyaviy fikrlash – bu mablag'larni investitsiyalash bo'yicha qarorlarni baholash malakasi va xatti harakatlaridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy savodxonlik — bu shaxsning pul mablag'larini to'g'ri boshqarish, moliyaviy qarorlar qabul qilish va resurslardan oqilona foydalanish qobiliyatidir. Ya'ni, bu bilim, ko'nikma va munosabatlarning yig'indisidir, ular orqali inson o'z moliyaviy barqarorligini ta'minlay oladi. Boshqacha qilib aytganda, shaxsiy moliyaviy savodxonlik odamning pul-iqtisodga oid bilim va tashabbuslari, ijtimoiy-iqtisodiy holatlari hamda xulq-atvori yig'indisidir. Unda resurslardan oqilona foydalanish, investitsiya va moslashuvchan foiz tushunchalarini to'g'ri tushunish, kredit va omonat jarayonlarini boshqarish kabi individual majburiyatlar aks ettiriladi.

Davlat sektorida esa moliyaviy savodxonlik - davlat byudjeti, maktablar hisobvaraqlari, soliq va sarmoyalashtirish jarayonlarini tushunib, ularni samarali boshqarishni nazarda tutadi. Ya'ni, shaxsiy moliyaviy savodxonlik shaxsning o'z daromadini yaxshilashga qaratilgan bo'lsa, davlat (davlat tashkiloti) moliyaviy savodxonligi tartib va qonun-qoidalarga muvofiq tashkil etiladi. Shunday qilib, shaxsiy va davlat moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi asosiy farq shundaki, shaxsiyda shaxsiy mablag'larni boshqarishga, davlat sektorida esa muassasaning moliyasi va byudjetini boshqarishga urg'u beriladi.

Bugungi kunda respublikamizda 6919 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat yuritmoqda. Ushbu muassasalarning har birida davlat byudjeti, ota-onalar to'lovi va boshqa byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish, taqsimlash va sarflash bilan bog'liq kundalik moliyaviy-xo'jalik faoliyatlari amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, har bir rahbarga ushbu munosabatlarni qonuniy, samarali va shaffof amalga oshirish mas'uliyatini yuklaydi. Bunda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorining moliyaviy kompetensiyasi davlat tashkiloti moliyasini boshqarish "public financial management" tamoyillariga, ya'ni O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, Mehnat kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy amaldagi xujjatlar doirasidagi qonuniylik, hisobdorlik va shaffoflikka asoslanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 70 va 72 moddalariga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimi tadbirlarining xarajatlari asosan respublika byudjetidan va tumanlar va shaharlar byudjetlaridan amalga

¹ Кийосаки Р.Т. Богатый папа, бедный папа / Р.Т.Кийосаки. – «Попурри», 2011. – С. 33;



oshirilishi belgilangan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari, bolalarni parvarishlash, ovqatlantirish va ularga qarab turish uchun olinadigan ota-onalar to'lovi, jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya ehsonlari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga moliyalashtiriladi².

MTT direktorining asosiy moliyaviy vazifalaridan biri bu byudjet mablag'lari doirasida mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish hamda byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etishdir. Bu jarayonlar qat'iy me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 05.01.2018-yildagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida" gi nizom. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 13-dekabrda 3-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida" gi nizom va boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar.

So'nggi yillardagi qonunchilik tashabbuslari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining (MTT) moliyaviy mustaqilligini oshirishga xizmat qiluvchi, byudjetdan tashqari mablag'larni jalb etish va ulardan samarali foydalanish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu jarayonda MTT rahbariyati uchun bir qator muhim moliyaviy "dastaklar" va imtiyozlar taqdim etilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi PF-51-son Farmoni bu borada yaqqol misol bo'la oladi. Unga ko'ra, ta'lim muassasasi mulkini ijaraga berishdan tushadigan mablag'larning 75 foizi bevosita balans saqlovchining, ya'ni MTTning o'zining ixtiyorida qolishi belgilandi. Bu, o'z navbatida, moliyaviy savodxon direktorga tashkilotning bo'sh turgan (foydalanilmayotgan) bino va xonalarini (masalan, oshxona, sport zal) qonuniy asosda ijaraga berish orqali muassasa uchun barqaror qo'shimcha daromad manbaini shakllantirish imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, Prezidentning 29.12.2023-yildagi PQ-422-son qarori bilan 2030-yil 1-yanvarga qadar MTTlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarga nisbatan ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilandi. Bu imtiyoz, ayniqsa, qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish va xodimlarni moddiy rag'batlantirishda sezilarli moliyaviy yutuq hisoblanadi.

Shunday ekan, zamonaviy MTT direktoridan nafaqat pedagogik jarayonni, balki aynan mana shunday huquqiy-moliyaviy "dastaklar" va soliq imtiyozlarining mohiyatini chuqur anglash hamda ulardan muassasaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlarni rag'batlantirish yo'lida unumli foydalana olish talab etiladi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy fikrlaridan kelib chiqqan holda, fikrimizcha maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorning moliyaviy savodxonligi — bu u maktabgacha ta'lim tashkilotining moliyaviy jarayonlarini (byudjet tuzish, xarajatlarni rejalashtirish, hisobot yuritish, sarflarni tahlil qilish, imtiyozlardan to'g'ri foydalanish, mablag'larni jamlash) to'g'ri tashkil etish qobiliyatidir. Ya'ni, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish, qaror qabul qilishda raqamlarga asoslanish, davlat va nodavlat mablag'lardan foydalanishda shaffoflikni ta'minlash, xodimlar va ota-onalar oldida hisobdorlikni ta'minlash qobiliyatidir.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Moliyaviy savodxon direktor tashkilotga qanday foyda beradi?

1. Byudjet mablag'laridan samarali foydalanish. Moliyaviy savodli direktor xarajatlarni aniq rejalashtiradi, ustuvor yo'nalishlarni belgilaydi va ortiqcha sarflarni qisqartiradi. Bu orqali mablag'lar ta'lim sifatiga yo'naltiriladi.

2. Byudjetdan tashqari daromad manbalarini yaratish. Savodli direktor to'lovli xizmatlar, loyihalar va homiylik asosida qo'shimcha mablag'lar jalb qilishi mumkin. Bu tashkilotning moliyaviy mustaqilligini oshiradi.

3. Hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlaydi. Moliyaviy jarayonlarni aniq hujjatlashtirish orqali direktor davlat organlari, ota-onalar va jamoatchilik oldida ishonchni mustahkamlaydi.

4. Xatolar va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Moliyaviy bilimli rahbar qonun talablariga muvofiq harakat qiladi, hisobotlarda xatolar yoki noqonuniy sarflar bo'lish ehtimoli kamayadi.

5. Pedagog va xodimlar uchun barqaror muhit yaratadi. Moliyaviy barqarorlik orqali xodimlarning ish haqi o'z vaqtida to'lanadi, moddiy rag'batlantirish tizimi joriy etiladi va bu jamoa motivatsiyasini oshiradi.

6. Tashkilotning nufuzi va samaradorligini oshiradi. Pul mablag'larini oqilona boshqarish natijasida muassasa infratuzilmasi yaxshilanadi, ta'lim sifatini oshirishga ko'proq sarflanadi va bu natijada tashkilotning nufuzi ortib boradi.

Moliyaviy savoxonlik darajasini tarkibiy komponentlari: moliyaviy bilim, malaka va ko'nikma. Moliyaviy bilim: bazaviy moliyaviy tushunchalar, sodda shakldagi moliyaviy arifmetika, oddiy va murakkab foizlarni hisoblay olish;

Moliyaviy malaka: moliyaviy shartnomalar mazmunini tushunish, zarur moliyaviy xizmatlarni mustaqil izlay olish, moliyaviy rejalar bo'yicha mustaqil hisob-kitob qila olish;

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2019-yil 13-maydagi 391-son Qarori



Moliyaviy ko'nikma: tashkilot byudjeti tuzish va rejalashtirish, pul mablag'larini investitsiyalash bo'yicha qaror qabul qila olish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ushbu bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasi zamonaviy rahbar faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida moliyaviy resurslarni oqilona boshqarish bevosita ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining moliyaviy savodxonligini tizimli rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bu boradagi ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish uchun rivojlangan davlatlar amaliyotiga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tahliliy hisobotda Singapur va Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimlaridagi direktorlarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish tizimlari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir mamlakatdagi rahbarlar tayyorlov dasturlari, moliyaviy kompetensiyalar, ta'lim uslublari va institutsional qo'llab-quvvatlash tizimlari solishtirib o'rganilgan.

Tashkilot va tizim	Singapur	Finlyandiya
Boshqaruv organi	Early Childhood Development Agency (ECDA) — maktabgacha ta'limni litsenziyalaydi va barcha rahbarlarning malakasini belgilaydi.	Munitsipal hokimiyatlar va Milliy ta'lim agentligi (Finnish National Agency for Education) — ta'lim siyosatini belgilaydi.
Direktor tayyorlov tizimi	Advanced Diploma in Early Childhood Centre Leadership (ADECL) — ECDA tomonidan tasdiqlangan. 180 soatlik, 3 yillik dastur.	Pedagogika magistr dasturlari asosan ta'lim va rahbarlikka qaratilgan. Alohida moliyaviy tayyorlov yo'q.
Moliyaviy savodxonlik yo'nalishi	Dasturda "Centre Operations and Financial Management" moduli mavjud — byudjet tuzish, xarajat rejasi, resurslar taqsimoti, hisobot tayyorlashni qamrab oladi.	Moliyaviy boshqaruv sohasi cheklangan. Asosiy e'tibor pedagogik va jamoa rahbarligiga qaratilgan.
Direktor malaka talablari	ECDA litsenziyasi uchun moliyaviy bilimlar va markazning operatsion boshqaruvida ishtirok qilish sharti qo'yiladi.	Direktorlar pedagogik rahbar sifatida tanlanadi, moliyaviy bilim talab sifatida belgilanmagan.
Ta'lim usuli	Nazariya + amaliy keyslar + operatsion menejment + amaliy moliya mashg'ulotlari (byudjet rejalashtirish, hisobot tahlili).	Pedagogik yetakchilik, jamoa hamkorligi, inklyuziv ta'lim, axloqiy rahbarlik ustuvor.
Moliyaviy boshqaruvning institutsional qo'llab-quvvati	ECDA va moliya vazirligi orqali markazlar uchun hisobot platformasi, grantlar va subsidiyalar nazorati mavjud.	Munitsipal byudjet orqali markazlar mablag' bilan ta'minlanadi; direktorlar moliyaviy jarayonga kam aralashadi.
Natija va samaradorlik baholash	Har yili markaz moliyaviy va ta'limiy samaradorlik hisobotini ECDAga topshiradi.	Ta'lim sifati pedagogik ko'rsatkichlar asosida baholanadi; moliyaviy samaradorlik mezonlari kam qo'llaniladi.
Tayyorlov natijasi	Direktor — ta'lim sifati, kadrlar va moliyaviy barqarorlik uchun javobgar "bosh menejer".	Direktor — asosan pedagogik rahbar, moliyaviy qarorlarda mahalliy hokimiyatga bog'liq.
O'rgatishda asosiy maqsad	Direktorni "strategik va moliyaviy rahbar" sifatida tayyorlash.	Direktorni "pedagogik yetakchi" sifatida shakllantirish.
O'zbekiston uchun olinadigan xulosa	Singapur modeli — amaliy moliyaviy kompetensiyalarni direktorlar tayyorlov tizimiga kiritish kerak.	Finlyandiya modeli — insonparvar, pedagogik va jamoaviy rahbarlik madaniyatini saqlab qolish muhim.

Tahlil natijalariga ko'ra, moliyaviy savodxonligi yuqori bo'lgan direktorlar tashkilot mablag'laridan samarali foydalanish, hisobot yuritish va shaffoflikni ta'minlashda yuqori ko'rsatkichlarga ega. Moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan direktorlar tashkilotning daromad manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Singapur va Finlyandiya tajribalari shuni ko'rsatadiki, moliyaviy savodxonlikni tizimli rivojlantirish rahbarning strategik fikrlashini kuchaytiradi.

Yuqorida olimlarning nazariy qarashlari va amaliyotdagi holatni tahlil qilgan holda, qo'yidagi tavsiyalar berildi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori va direktorlikka nomzodlar uchun tashkil etilgan "Menejerlik" o'quv kursining "Moliyaviy menejment" moduli mavzulariga "Moliyaviy savodxon direktor" mavzusini kiritish tavsiya etiladi.

2. Har bir direktor uchun moliyaviy kompetensiya profili ishlab chiqilishi lozim.



3. Moliyaviy boshqaruv bo'yicha menejerlik o'quv kursi mashg'ulotlarida amaliy keys-tahlillar joriy etilishi tavsiya etiladi.

4. Axborot texnologiyalariga asoslangan elektron hisobot tizimlarini joriy etish moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlariga onlayn yoki oflayn 36 soatga mo'ljallangan "Moliyaviy savodxonlik" qisqa muddadli o'quv kurslarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimidagi so'nggi institutsional o'zgarishlar MTT direktorining rolini tubdan o'zgartirmoqda. Taqdim etilgan yangi "moliyaviy dastaklar" moliyaviy savodxonlikni ixtiyoriy bilimdan tizimli zaruratga aylantirib, rahbar maqomini an'anaviy "pedagog"dan "pedagog-menejer" maqomiga transformatsiya qilmoqda. Bu sharoitda, MTT direktori uchun talab etiladigan moliyaviy savodxonlik konsepsiyasi shaxsiy moliyani boshqarishdan farqli ravishda, "public financial management" (davlat moliyasini boshqarish) tamoyillariga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksida belgilangan qonuniylik, hisobdorlik va shaffoflikka asoslanishi lozim.

Singapur ("menejer-direktor") va Finlyandiya ("pedagog-yetakchi") modellarining qiyosiy tahlili O'zbekiston uchun aniq strategik yo'nalishni belgilash mumkin. Faqat moliyaviy boshqaruvga (Singapur) yoki faqat pedagogik yetakchilikka (Finlyandiya) urg'u berish samarali yechim emas. Eng maqbul yo'l – bu ikki modelning integratsiyasidir. Ya'ni, tizim Singapur modelidan moliyaviy boshqaruv, byudjetlashtirish va amaliy keyslarga asoslangan qat'iy tayyorlovni joriy etishi va ayni paytda Finlyandiya modelining kuchli tomonlari – insonparvarlik, jamoaviy hamkorlik va kuchli pedagogik yetakchilik madaniyatini saqlab qolishi hamda rivojlantirishi lozim. Singapurning samarali moliyaviy boshqaruv mexanizmlari va Finlyandiyaning ochiq pedagogik yetakchilik amaliyotlarini birlashtirish orqali MTT direktorlarining strategik, moliyaviy va pedagogik rahbarlik salohiyatini keng qamrovda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimini xalqaro tajribalarga muvofiq takomillashtirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019-yildagi O'RQ-595-son «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi Qonuni. <https://share.google/KUVI5MRP3ky2Qnp4D>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.03.2025-yildagi PF-51-son "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://share.google/ZALLgnNaEO2DyGkLq>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2023-yildagi PQ-422-son "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. <https://share.google/J8P5Qhol0uSEA53se>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 05.01.2018-yildagi 10-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida" gi nizom.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.12.2005-yildagi 275-son "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2018-yil 13-dekabrda 3-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha pullik ta'lim-tarbiya xizmatlari ko'rsatish faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizom.
7. Müller S. & Weber M. (2010). Financial Literacy and Mutual Fund Investments: Who Buys Actively Managed Funds? Schmalenbach Business Review 62 (2). – P. 126153;
8. Lee N. // Financial literacy and financial literacy education: What might be the components of an effective financial literacy curriculum? // Institute of Education University of London. 2010 P.3;
9. OECD., 2013. – S. 5.
10. OECD/INFE International survey of adult financial literacy © OECD., 2020. – P. 21.
11. Staxovich L.V. Neobxodimost povыsheniya finansovoy gramotnosti molodeji kak vajneyshiy prioritet gosudarstvennoy politiki. <http://ecsocman.hse.ru/text/33372918/>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>